



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA GRAMMATIK TAHLILNI TO'G'RI YO'LGA QO'YISH

Meretgeldieva Aygul

NDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7913410>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> May 2023

Accepted: 08<sup>th</sup> May 2023

Online: 09<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

*Ta'lim sohasi, hamkorlik, sinfdan tashqari ishlar, ilg'or pedagoglar, ta'limiy maqsad va tarbiyaviy maqsad.*

### ABSTRACT

*Bu maqolada shu ko'rsatiladiki, unda har bir sohaga kirilar ekan, uni tubdan o'rganish, tahlil qilish, ona tilini metodik jihatdan qunt bilan o'rganish, ta'lim jarayoni haqida bayon qilinadi.*

Ulug'-donishmandlardan biri «..kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Shubhasiz bu gaplar to'g'ri. Toki inson o'zini durustlamaguncha boshqalarga ham o'rnak bo'la olmaydi. Buyuk kelajakni istasang kecha-kunduz harakat qilish kerak. Bolalarning yaxshi kelajagini istasang esa undan ham qattiq mehnat qilishga to'g'ri keladi.

K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. „Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi. Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir" - deydi u. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganishga katta ahamiyat beriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari o'z vazifalarini belgilab olishda ta'lim sohasidagi davlat hujjatlariga tayanadi. Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi,



o'rganish jarayonida o 'quvchilar o 'zlashtirishning turli ko 'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o 'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o 'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o 'qituvchi va o 'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o 'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo 'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to 'g'ri, aniq, o 'rinli foydalanish ko 'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o 'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o 'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o 'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo 'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Insoniyatning ehtiyoj va talablari, jismoniy va ma'naviy yuksalishi respublikamiz davlat siyosatning markaziga chiqarilgan bo'lib, hozirgi kunda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning ta'lim-tarbiya borasida olib borayotgan ishlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- sonli "O 'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish ta'lim tizimi sohasidagi ustivor yo'nalishlar sifatida belgilandi. Davlatimiz tomonidan ta'lim-tarbiya ishlari sifatini ko 'tarish ishlari amalga oshirila boshlandi.

K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o 'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. „Ajoyib o 'qituvchi bo 'lgan ona tili bolaga ko 'p narsani o 'rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko 'p narsa o 'rganadiki, ko 'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to 'g'ri o 'qiganda ham uning yarmicha o 'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir" — deydi u. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tilini o 'rganishga katta ahamiyat beriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari o'z vazifalarini belgilab olishda ta'lim sohasidagi davlat hujjatlariga tayanadi. Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi.

### References:

1. M.Jumaniyazova, S.Tojiddinova " Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning adabiy tushunchalarini shakllantirishning maqsad va vazifalari" maqolasi
2. A.Aliev "O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. Toshkent - 2016
3. www.org.uz